

(THE SIGNIFICANCE OF THE METHOD OF INTEGRATION IN LITERARY EDUCATION)

Hoshimjon Ahmedov

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek adabiyotini
o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi
Ahmedov.hoshim60@gmail.com

Annotation. This article discusses the integration method. Conclusions are drawn about the importance of using this method in the Uzbek national literary education. Recommendations on the application of the method are given. Sources with valuable integration experience are recommended.

Key words: integration in literary education, Uzbek literature, recommendations.

ADABIY TA'LIMDA INTEGRATSIYA METODINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada integratsiya metodi haqida fikr yuritiladi. O'zbek milliy adabiy ta'limida bu metodni qo'llashning ahamiyati haqida xulosalar bayon qilinadi. Mazkur metod doirasida qo'llanishi tavsiya qilingan usullar bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi. Integratsiya bo'yicha qimmatli tajribalari bor bo'lgan manbalar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: adabiy ta'limda integratsiya, o'zbek adabiyoti, tavsiyalar.

Аннотация. В этой статье рассматривается метод интеграции. Делаются выводы о важности использования этого метода в узбекском национальном литературном образовании. Даны рекомендации по применению метода. Рекомендуются источники с ценным опытом интеграции.

Ключевые слова: интеграция в литературном образовании, узбекская литература, рекомендации.

Kirish. Masalaning qo'yilishi.

Ma'lumki, jahon tajribasidan o'tgan metodlar yaxshi natijalarni ta'minlaydi. Jumladan, adabiy ta'limda integratsiya metodini qo'llash ham anchadan buyon tajriba qilib kelinmoqda. Bizning mulohazalarimiz bu metodni muayyan sharoitlarda qo'llash bo'yicha.

Manabalar sharhi.

Adabiy ta'limda integrativ yondashuv metodi – yakuniy natijani ta'minlashga qaratilgan bir necha metodik usullar yig'indisi hisoblanadi. **Integratsiya** – lotincha so'z bo'lib, tiklash, to'ldirish, butun so'zidan; 1) tizim yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liklik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi, o'zaro aloqa jarayoni, differentsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini muvofiqlashtirish. [1.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, I harfi, 214-bet]. Под интеграцией в педагогическом процессе исследователи понимают одну из сторон процесса развития, связанную с объединением в целое ранее разрозненных частей. Этот

процесс может проходить как в рамках уже сложившейся системы, так в рамках новой системы. Сущность процесса интеграции — качественные преобразования внутри каждого элемента, входящего в систему. [2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Интегрированное_обучение]

“Integrativ ta’lim zamonaviy bilimlarning har bir bo’limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yosh psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o’rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog’liqligini o’rganuvchi : kibernetika – boshqarish, aloqa axborotni qayta ishlash, axborotning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o’rnini o’rganuvchi fan. (1, 258-bet.) Bir qator ishlar boshlang’ich ta’limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalariga bag’ishlangan. Bu muammolar o’quv fanlarini integratsiyalashga o’tishning yaqin rivojlanish zonasidir. Bu bilan T. Raizayeva, G. Akvilyeva, D. Troytar, G. Baltyukova, N. Velenkin, N. Drujina, T. Nazarova, R. Matyushovalar ish olib borishgan.(259-bet)

Integratsiyalashgan ta’limdan ko’zlangan maqsad – bolani, o’quvchilarni Dunyo, tevarak-olam bilan suhbatga tortish, insonni butun borliq voqea-hodisotlari, voqea-jarayonlar bilan aloqa-aralashuvi, bilishga intilishini rag’batlantirishdir.

Tabaqalashtirish jarayonlari fanlarni yaqinlashtirishga, tushunchalarni yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Differentsiatsiya – fransuz va lotin tillaridan kelib chiqqan bo’lib, farq, xar hillik, butunni bo’laklarga, qismlarga ajratish. Avval bu jarayonni o’tkazish lozim. Keyin esa – integratsiya. Bunda endi bo’lingan qismlarni bir butunlikka birlashtirish ro’y beradi. Bunda yaxlit tushunchaga yo’l osonlashadi. Butunni anglashni ta’minlaydi. Integratsiyalash orqali bir-biriga bog’liqlik hajmi ortadi, tartibga olinadi, qismlarning ishlash taribi o’rinlashadi.

Misollar.

O’quvchilarga darslarda badiiy ijod tabiati, ijodiy jarayon, yozuvchi va zamon, ilhom samarasi hamda ijodkor shaxsiyati kabi masalalar bo’yicha nazariy va amaliy bilimlar berish ham muhim. Har bir darsda o’quvchilar ham nazariy, ham amaliy mashg’ulotlarda qatnashadilar. Dars-mashg’ulotlar har doim o’quvchi iqtidorini rivojlantirishga qaratiladi. Bunda asosiy e’tibor o’zbek va dunyo adabiyotidagi, adabiy jarayondagi eng ilg’or hamda ta’sirchan adabiy materiallar muhokama qilinadi. Darslar “Muloqot”, “Bahsmunozara”, “Savol-javob”, “Aqliy hujum”, “O’quvchi taqdimoti” kabi rang-barang usullarda olib boriladi. Shuningdek yozma ishlarda mustaqil ijodiy fikrlashga urg’u beriladi. To’garakda o’tkaziladigan adabiy-ma’rifiy tadbirlar bo’lg’usi iqtidorni aniqlash hamda yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Mashg’ulotlarda dastlab she’r tanlash, ifodali o’qish, matn tahlili, ayrim so’zlar imlosi hamda ma’nolari, badiiy so’zning vazifasi, qofiyalar haqida ma’lumot kabilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ayniqsa she’rnig yozilish sabablari, shoirni to’lqinlantirgan jihatlar haqida mulohazalar o’quvchida jiddiy qiziqish uyg’otadi. Bunda milliy va jahon she’riyatidan misollar tanlashga, ifodali o’qishga, tahlilga hamda she’r texnikasi kabi jihatlariga e’tibor qaratish lozim.

Barchamizga ma’lumki, adabiyot darslari jarayonlarida juda ko’p fikrlar tug’iladi. Ba’zan ijodkorona bildirilgan fikr-mulohazalarga duch kelamiz. Bu degani – darslarda o’quvchilar jamoasi ichida jodiy-yangi fikrlar paydo bo’lishi mumkin degani. Aynan ana shu ijodkorlikni rivojlantirish esa – badiiy ijod to’garaklarida davom ettirilishi kerak. Ta’lim jarayonlarida iqtidorli o’quvchini aniqlash hamda unga vaqtida e’tibor qaratish zarurligini ko’p mutaxassislar ta’kidlashadi

Olga Bortnovskaya va Natalya Trofimovalar o’tkazgan tajribalar va ular bergan xulosalar ham integrative yondashuv borasida yaxshi samara beradi. Ular bu metodning

o'quvchiga hamda o'qituvchiga yaxshi-yomon tomonlarini, bu metoddan maksimal natija chiqishi uchun integratib darsning darsdan tashqari vaqtda ham davom ettirishni tavsiya qilishadi. Ularning ta'kidlashlaricha, bunda o'quvchilarning aqliy salohiyati oshadi, bolaning atrof-muhitga moslashishi osonlashadi. [3. <https://infourok.ru/metodicheskiy-material-integrativniy-podhod-v-obuchenii-603008.html>]

Bir guruh rus olimlari integratsiya metodi amerikalik olim Jon Dyui tomonidan ilgari surilganini ta'kidlashadi. Ilg'or rus pedagoglaridan Tatyana Aleksandrova, M. Gorbatovalar, T. Shatskayalar fanning turli tarmoqlarida, milliy rus adabiy ta'limida integrative metod afzalliklarining konkret natijalar berib kelayotganini bildirishgan. [4. https://otherreferats.allbest.ru/pedagogics/00014823_0.html].

O. Akimova va V. Chapayevlarning kuzatishlariga ko'ra integratsiya tufayli bolaning ongi oshib, uning jamiyatga aralashuvi yaxshilanadi. [5. <https://science-education.ru/ru/article/view?id=26857>].

Yermakova Lididya Aleksandrovna esa integrative yondashuv chog'ida bolani butun borliq bilan hamkorlikda ishlashga o'rgatish kerak, deydi. Bunda buyuk pedagog Komenskiyning "Buyuk didaktika" kitobida ko'tarilgan g'oyalarga sodiq bo'lmoq kerak deydi. [6. <https://pedagogika.snauka.ru/2016/07/5815>]. O'zbek pedagoglari ham aslida bu metodni avvaldan qo'llab kelganlar. Faqat bu ilg'or usullar o'z vaqtida keng targ'ib qilinmagan bizningcha. Boqijon To'xliyev «Adabiyot iste'dodli yozuvchinigina emas, balki iste'dodli kitobxonni ham talab qiladi»-deydi.[7.«Adabiyot o'qitish metodikasi»], Qozoqboy Yo'ldoshev [8.«O'qituvchi kitobi», "Badiiy tahlil asoslari"], Safo Matjon [9.«Kitob o'qishni bilasizmi?», "Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar", "Ona tili o'qitish metodikasi", "Bolalar adabiyoti", "Bolalar olami", "Tiriklik suvi" "Ikki el ardog'ida", "Bolalikni poshsholikka almashtirasizmi?"] Marg'uba Mirqosimova [10. "O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari", "Adabiy tahlil metodikasi"], Madayev O. [11.«Adabiyot – so'z san'ati» mavzusini o'rganish. – T.: 2008.], Yo'ldosheva N., Murodova S. [12. Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning afzalligi. – T.: IPT va nashr ishlari bo'limi, 2007.] Zunnunov A., Aliev A. [13. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlarga bog'lab o'rganish. – Toshkent, "O'qituvchi" 1982 yil.]. Bu sanalgan asarlarda integratsiyaning u yoki bu jihati tadqiq etilgan.

Xulosalar.

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuvda o'quvchining darsga moslashuvi, o'zini erkin tutishi hamda o'z fikrlarini tortinmay bayon qilishiga yo'l ochiladi. Undan tashqari ta'lim-tarbiyaning eng asosiy maqsadi hisoblangan – mustaqil va erkin fikrlashga imkon tug'iladi. Integratsiya metodini avvaldan rejalashtirib, kerakli manbalarni yig'ib, tahlil qilib, keraklisini qo'llash – o'ylashimizcha doim yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bizning tajribalarimiz mana shu omilni isbotlab kelmoqda,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. "И" ҳарфи. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси»Давлат илмий нашриёти. 2005. – 492 б.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Интегрированное_обучение
3. <https://infourok.ru/metodicheskiy-material-integrativniy-podhod-v-obuchenii-603008.html>
4. https://otherreferats.allbest.ru/pedagogics/00014823_0.html
5. <https://science-education.ru/ru/article/view?id=26857>
6. <https://pedagogika.snauka.ru/2016/07/5815>.
7. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 152 б.

8. Йўлдошев Қ. Ўқитувчи китоби. 7-синф Ўзбек адабиёти дарслик-мажмуаси учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 132 б; Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.
9. Сафо Матчон. Китоб ўқишни биласизми?- Т.: Ўқитувчи, 1993, 160 б.
10. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent, Fan, 2006.
11. Madayev O. "Adabiyot – so'z san'ati" mavzusini o'rganish. – Т.: 2008. 132 б.
12. Йўлдошева Н., Муродова С. Адабиёт дарсларида замонавий педагогик технологияларни қўллашнинг афзаллиги. – Т.: ИРТ ва нашр ишлари бўлими, 2007. – 140 б.
13. Зуннунов А., Алиев А. Адабиётни бошқа ижтимоий фанларга боғлаб ўрганиш. –Т, "Ўқитувчи". 1982.-86 б.